

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ZAKIROVA UMIDA MAXAMADAMINOVNA**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘IDAGI  
TARKIBIY O‘ZGARISHLARNING STATISTIK BAHOLASH  
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor (DSc)  
in economic sciences**

**Zakirova Umida Maxamadaminovna**

О‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi tarkibiy o‘zgarishlarning statistik baholash uslubiyotini takomillashtirish..... 3

**Закирова Умида Махамдаминовна**

Совершенствование методологии статистической оценки структурных изменений в отрасли сельского хозяйства Республики Узбекистан..... 37

**Zakirova Umida Makhamadaminovna**

Improving the methodology of statistical assessment of structural changes in the agricultural sector of the Republic of Uzbekistan..... 75

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of publications..... 80

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ZAKIROVA UMIDA MAXAMADAMINOVNA**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘IDAGI  
TARKIBIY O‘ZGARISHLARNING STATISTIK BAHOLASH  
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Iqt631 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Salimov Baxtiyor Tadjiyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Umarova Muqaddas Abbasovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Otajanov Umid Abdullayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor


**Yetakchi tashkilot:** **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «10» 09 kuni soat 14<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 01 49; faks: (99871) 2326992; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (139 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 01 49; faks: (99871) 2326992.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «21» 08 da tarqatildi.  
(2025-yil «21» 08 da 90 raqamli reyestr bayonnomasi).



  
**S.K. Xudoyqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

  
**B.E. Mamaraximov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., professor

  
**U.V. G'afurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda global raqobatning keskinlashuvi sharoitida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondiruvchi qishloq xo'jaligi tarmog'ining ahamiyati oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "Bugungi kunda jahon qishloq xo'jaligi iqtisodiy faol aholining 1 mlrd. kishidan ziyodining bandligini ta'minlamoqda, shuningdek, jahonda ishlab chiqarilgan jami mahsulotlarning 5 foiziga yaqini mazkur tarmoq hissasiga to'g'ri keladi. Prognoz ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2050-yilga borib, jahon aholisi 9,1 mlrd. kishiga yetishi mumkin. Bu holatda jahon aholisining go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan talabi hozirgi kunga nisbatan 2,5-3,0 barobarga ortishi kutilmoqda"<sup>1</sup>. Ushbu jarayonda Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh, Yaponiya va Isroil davlatlari tajribalarida tarmoqda ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish, ilg'or innovatsiyalarni joriy etish, tarmoqni iqtisodiy-statistik tadqiq etish orqali qabul qilingan davlat dasturlari ijrosini ta'minlash, ularni tizimli shakllantirish, agrar sektorni klasterlash kabi zamonaviy shakllarda xo'jalik yuritish amalga oshirib kelinmoqda.

Jahonda global beqarorlik holatining yuzaga kelishi oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni o'rganishga alohida e'tibor qaratishni va bu borada kengaytirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda. Mazkur tadqiqotlarda agrar sektorning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, aholi soni va talabi o'sishini qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan mutanosibligini ta'minlash, agrar sektorni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini ixtisoslashtirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va uslublarni qo'llash orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish, ularning faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni kompleks statistik tadqiq etish, raqobatbardoshligini ta'minlash bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda agrar sektor sohasi aholining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini ta'minlash bilan birga mamlakat eksport salohiyatini oshirish maqsadida, sohaga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini rag'batlantirish va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida " taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshiriladigan eng ustuvor vazifalardan biri milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qishloq xo'jaligi samaradorligini tubdan oshirish va uni diversifikatsiya qilish, ya'ni agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini klaster asosida qayta ishlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq joylarida yashayotgan aholining hayot darajasi va sifatini oshirish, fermer va dehqonlar daromadini 2 barobar ko'paytirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atini

---

<sup>1</sup> <http://mcx.ru>

kamida 5 foizga yetkazish”<sup>2</sup> kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarning ijrosini samarali ta’minlash agrar sektor xo’jaliklari tarkibiy o’zgarishlarini iqtisodiy-statistik tahlil qilish, ularning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni kompleks statistik baholash, rivojlanish istiqbollarini o’rta muddatli prognozlash bo’yicha asoslangan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarda Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O’zbekiston Respublikasi qishloq xo’jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo’ljallangan strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmonlari, 2022 yil 7 iyundagi PQ-273-son “O’zbekiston Respublikasi qishloq xo’jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo’ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi 104-son “Qishloq xo’jaligi sohasida statistik ma’lumotlar bazasini kengaytirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori hamda sohaga doir boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga bog’liqligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo’yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup>. Agrar sektor korxonalarining ko’p omilli statistik tadqiq etish, samarali boshqarish strategiyasini shakllantirish, ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini va faoliyat yuritish samaradorligini oshirish, tizim boshqaruvining ekonometrik modellarini tuzish asosida optimallashtirishga yo’naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Stenford University, Princeton University, Harvard University (AQSh), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), University of Munster (Germaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Tailors University (Malayziya), Gazi University (Turkiya), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Farg’ona davlat universiteti (O’zbekiston Respublikasi)da olib borilmoqda;

Globalashuv sharoitida agrar sektorning faoliyatini innovatsion rivojlantirish

---

<sup>2</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son farmoni [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo’yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi Stenford University, Princeton University (AQSh), Harvard University (AQSh), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Gazi University (Turkiya), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti (Rossiya) va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti web-sahifalari va boshqa manbalar asosida yoritilgan.

bo'yicha jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: agrar sektorning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-mexanizmi ishlab chiqilgan, qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyat yuritish samaradorligini zamonaviy statistik usullarda integral baholash uslubi takomillashtirilgan, tizim boshqaruvini optimallashtirish uchun zarur tashkiliy o'zgarishlarning ta'siri ekonometrik usullarda baholangan (Stenford University, Prinnton University, AQSh; Universidad de Las Palmas de Gran Canaria, Ispaniya; University of Munster, Germaniya); agrar sektor faoliyatini yuritishda xalqaro standartlardan foydalanish, iste'molchilarning qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirish jihatlari asoslangan (Korea Development Institute, Janubiy Koreya); qishloq xo'jaligi tarmog'idagi jami daromadlar va YaIM hajmining o'zgarish tendensiyalari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan (Gazi University, Turkiya), agrar sektorning mamlakat va hududlar iqtisodiyotiga ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir etishi, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlari asoslangan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston);

Jahonda globallashtirish sharoitida agrar sektorning barqaror rivojlantirishni takomillashtirish bo'yicha bir qator, jumladan, quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: mintaqalarda qishloq xo'jaligi tarmog'ida zamonaviy ekonometrik va statistik usullarni qo'llagan holda agrar sektor iqtisodiy samaradorligini oshirish uslubiyotini takomillashtirish; qishloq xo'jaligi mahsulot va xizmatlarini standartlashtirish va sifatini oshirish uchun jahon andozalariga mos tasniflarni amalga oshirish; qishloq xo'jaligi eksport salohiyatini oshirish; qishloq xo'jaligi infratuzilmasini takomillashtirish; agrar sektorda innovatsion strategiyalarni rivojlantirish; qishloq xo'jaligi tarmog'ida iqtisodiy-statistik va ekonometrik usullardan samarali foydalanish va h.k.lar.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Agrar sektorni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlari xorijlik olimlardan L.Sfu, Ts.Fan, L.Chjou, J.M.Shurbax, S.Shiona, S.S.Shenoylar tomonidan tadqiq qilingan<sup>4</sup>.

Mustaqil Davlatlari Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan agrar sektorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, iqtisodiy modellashtirish va prognozlash masalalari L.V.Agarkova, I.A.Baranov, N.A.Popov, A.V.Afanaseva, M.A.Solomaxin, N.I.Grekov<sup>5</sup> tomonidan o'rganilgan.

<sup>4</sup> Лин Цфу, Цой Фан, Ли Чжоу. Китайское чудо: экономическая реформа, стратегия развития. – М., 2001. С.68.; Jan Mathis Schopbach "Foreign direct investment in agriculture the impact of out grower schemes and large-scale farm employment on economic well-being in Zambia" Master of Arts, University of Zurich accepted on the recommendation of Prof. Dr. Rolf Kappel, examiner Prof. Dr. Isabel Gonther, co-examiner Prof. Dr. Jann Lay, co-examiner, diss. eth no. 22287 2014. – p. 21-28.; Susan Chiona, BSc "Technical and allocative efficiency of smallholder maize farmers in Zambia" A thesis submitted to the University of Zambia in partial fulfillment of the requirements of the degree of Master of Science in Agricultural Economics, The University of Zambia Lusaka, 2011. – p.64.; Sajna S. Shenoy. Food tourism and the culinary tourist. Clemson University, 2005.

<sup>5</sup> Агаркова Л.В. Формирование механизма устойчивого развития плодоовощного подкомплекса: теория и практика. – Ставрополь: Ставролит, 2007. –С.168.; Баранов И.А. Совершенствование коммерческой работы торговых и заготовительных организаций потребительской кооперации. Автореф. дисс.д-ра экон. наук. – М.: РГБ, 2003. – С.39.; Попов Н.А. Экономика сельского хозяйства. – М.: Дело и сервис, 2005. – С.56.; Афанасева А.В. Статистическая оценка динамики производства сельскохозяйственной продукции в системе

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining tarkibiy tuzilmasini iqtisodiy-statistik tahlil etish hamda samaradorligini oshirish, ekonometrik modellashtirish va prognozlash masalalari B.Berkinov, N.M.Soatov, Yo.A.Abdullayev, T.Sh.Shodiyev, A.Abdug'aniyev, G'.X.Qudratov, A.M.Jo'rayev, R.H.Husanov, A.Qodirov, F.Dusmatov, Q.Choriyev, N.S.Xushmatov, N.R.Asadulina, A.X.Burhonov, M.Mirzayev, Ch.Murodov, F.Nazarova, U.Umurzoqov, U.S.Muxiddinova, I.K.Jumayev, Sh.T.Ergasheva, M.Raxmatov<sup>5</sup> kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqorida qayd etilgan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy yondashuvlari agrar iqtisodiyotdagi tarkibiy tuzilmalar va samaradorlik masalalarini nazariy va amaliy jihatdan ilmiy o'rganishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ammo mazkur tadqiqotlarda milliy qishloq xo'jaligi tarmog'ining statistik tahlilini amalga oshirishda axborotlar bazasini takomillashtirish, ko'rsatkichlar tizimi va statistik hisobga olish masalalariga yetarli e'tibor berilmaganligi mazkur mavzuning tadqiqot ishi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent

---

государственного регулирования продовольственного рынка. Автореф.дисс. на соиск.канд. экон. наук. – Самара. 2008. –С.26.; Соломахин М.А. Основные направления совершенствования системы ведения садоводства в условиях развития агропромышленной интеграции. //Организационно-экономические проблемы стабилизации и развития аграрного сектора экономики. Том 1: Материалы научно-практической конференции, 9-10 ноября 2005 г. – Мичуринск: Изд-во ФГОУ ВПО МичГАУ, 2005. Том 1. -С.153-159.; Греков Н.И. Основные направления и факторы интенсификации садоводства. //Организационно-экономические проблемы стабилизации и развития аграрного сектора экономики. Том 1: Материалы научно-практической конференции, 9-10 ноября 2005 г. – Мичуринск: Изд-во ФГОУ ВПО МичГАУ, 2005. – Том 1. -С.164-166.

<sup>5</sup> Soatov N.M. Statistika. Darslik. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2003. – 743 b; Abdullayev Yo.A. Statistika nazariyasi. Darslik. – T.: O'qituvchi, 2002. - 592 b.; Berkinov B.B., Axmedov U.K. Uy xo'jaliklari rivojlanishi va oila daromadlarini oshirish istiqbollari. – T.: Fan va texnologiya, 2013.-144 b; Шадиев Т.Ш. Экономические модели развития сельского хозяйства. – T.: Фан, 1986. -С.168.; Abdug'aniyev A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti.– T.: Adabiyot jamg'armasi. 2007. –340 b.; Qudratov G'.X. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston g'allachiligidagi iqtisodiy munasabatlar. Monografiya. – T.: Iqtisod-moliya. 2006. –В. 250.; Кудратов Г.Х., Акрамов Э. Реформирование сельского хозяйства Республики Узбекистан: задачи принципы и основы направления реформ. //Сельское хозяйство Узбекистана. – T., 2000. № 6. –С. 2-4.; Жўраев А.М., Хусанов Р.Х. Аграрная реформа: теория, практика, проблемы. – T.: Узбекистан, 2002. –С.766.; Xusanov R.X., Do'stmurodov R. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda Andijon tajribasi. – T.: Yangi asr avlodi. 2008. –49 b.; Кадыров А.М., Дусматов Ф.Д. Инновационные инвестиционные факторы развития агропромышленного комплекса. – T.: ИЭАНРУз, 2009. – С.52.; Choriyev Q.A., Xushmatov N.S. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini rejalashtirish. – T.: Sharq, 2002. –132 b.; Асадулина Н.Р. Механизм регулирования эффективности плодовоощного комплекса Республики Узбекистан на основе логистического подхода. Дисс.на соис. учен. степ. канд. экон. наук. – T., 2006.– С.158.; Burhonov A.X. Turli mulkchilik shaklidagi qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis.– T.: O'zBIIITI, 2000. –117 b.; Mirzayev M.M. Mevali daraxtlardan yuqori hosil yetishtirish. – T., 2006. R.R.Shreder ПТ–В.100.; Murodov Ch. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasini rivojlantirish. Iqt.fan. dokt. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T., 2001. –46 b.; Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. – T., 2001.- 290 b.; Умурзаков У.П. Пути повышения эффективности использования ресурсного потенциала аграрного сектора экономики (на материалах Республики Узбекистан). Автореф. дисс. на соис. учен. степ. д-ра экон. наук. – T., 2003. – С.43.; Muxitdinova U.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mevasabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqt.fan.dok.ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. – T., 2010. –36 b.; Jumayev I.K. Fermer xo'jaliklari rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini ekonometrik bashoratlash. Iqt.fan.dok.ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. – T., 2011. –43 b.; Ochilov S., Ergasheva S. Qishloq va suv xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. –T., 2008. –192 b.; Рахматов М. Развитие плодовоощного подкомплекса в Ферганской области. Автореф. дисс. на соис. кан. экон. наук. – T., 1989. – С.24.

davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F1-154-son “Milliy iqtisodiyot tarkibiy o‘zgarishining yalpi ichki mahsulot o‘shiga ta’sirini baholash metodologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi tarkibiy o‘zgarishlarning statistik baholash uslubiyotini takomillashtirish hamda istiqbollarni prognozlash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

agrar sektorning tarkibiy o‘zgarishlarini statistik tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslarini yoritish;

qishloq xo‘jaligining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni va ulardagi tarkibiy o‘zgarishlarni o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining iqtisodiy rivojlanishi va asosiy tendensiyalaridagi tarkibiy o‘zgarishlarni statistik usullarda tahlil qilish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

mamlakat agrar sektorida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning tarkibiy tuzilmasining ko‘p omilli statistik tahlilini amalga oshirish;

xorijiy mamlakatlarning qishloq xo‘jaligi sohasidagi ilg‘or tajribalarini qiyosiy o‘rganish asosida, ulardan mahalliy darajada samarali foydalanish yo‘llari bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy rivojlanish holati, tarkibiy tuzilmasi va samaradorligini statistik jihatdan tahlil qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

qishloq xo‘jaligi faoliyatini tarkibiy tuzilmasini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi va uning axborotlar bazasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

qishloq xo‘jaligi subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha ilmiy takliflar tayyorlash;

qishloq xo‘jaligi faoliyati istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha prognoz variantlarini tuzish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida mamlakatimizdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** qishloq xo‘jaligining tarkibiy o‘zgarishlarini statistik baholash, ko‘p omilli tahlil qilish jarayonlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida statistik kuzatish, guruhlash, taqqoslash, dinamika qatorlari, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy indekslar, korrelyatsion-regression tahlil, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “qishloq xo‘jaligi statistikasi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni agrar sektordagi iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarini muntazam va tizimli hisobga olish, tahlil qilish, modellashtirish va prognozlash

orqali qishloq xo'jaligining holati va rivojlanish dinamikasi to'g'risida obyektiv, xolis va taqqoslama ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayonlari tarmoq tarkibiy o'zgarishlari bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar jihatidan takomillashtirilgan;

agrar tarmoqdagi tarkibiy o'zgarishlarni statistik baholash metodologiyasini iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2)ga ko'ra iqtisodiy indeks usulini joriy etish asosida takomillashtirish orqali subtarmoqlar o'rtasidagi dinamik o'zgarishlar ta'sirida qishloq xo'jaligi mahsuloti yalpi hajmini oshirish ( $MYaHqx = 8\%-12\%$ ) chegarasi asoslangan;

qishloq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda yuqori samarali subyektlarni tanlash imkonini beruvchi metodologik asos fermer, dehqon, klaster, agrofirma va kooperativlar kabi tashkiliy-huquqiy hamda mulkchilik shakllarini inobatga oluvchi jamlanma statistik ko'rsatkichlar orqali agregatlangan tahlil usuli asosida takomillashtirilgan;

qishloq xo'jaligi tarmog'ida tuzilmaviy siljishlar samaradorligini oshirish maqsadida ekin maydonlarining agroiklimiy va resurs salohiyatiga mos ravishda qayta joylashtirishni modellashtiruvchi imitatsion tizim orqali ekinlardan olinadigan o'rtacha hosilni ( $O'He = 10\%-15\%$ ) hamda agroiqtisodiy samaradorlikni ( $Sa = 20\%$ ) oshirish imkoniyati asoslangan;

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'idagi asosiy rivojlanish tendensiyalari bo'yicha natijaviy ko'rsatkichlarning ko'p omilli ekonometrik modeli asosida 2030- yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

milliy statistika amaliyotida mamlakatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi subyektlari iqtisodiy faoliyatidagi tarkibiy o'zgarishlarni baholovchi ko'rsatkichlardan samarali foydalangan holda agrar sektor faoliyatini kompleks statistik baholash bo'yicha integral ko'rsatkichlar tizimi taklif etilgan;

qishloq xo'jaligi tarmog'ining hozirgi davrdagi dinamikasini tizimli statistik tahlili asosida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlash, dinamik jarayonlarni baholash qamrovini kengaytiruvchi jamlama statistik ko'rsatkichlaridan xo'jaliklar faoliyatida foydalanish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

qishloq xo'jaligi tarmog'i tarkibiy tuzilmasini iqtisodiy-statistik jihatdan o'rganish, ixtisoslashgan xo'jaliklar faoliyatini statistik baholash va iqtisodiy samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari baholangan;

qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion rivojlantirish yo'llari bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

statistik kuzatish usullarini keng qo'llash hisobiga qishloq xo'jaligi subyektlari iqtisodiy faoliyatini statistik hisobga olishning uslubiy jihatlari takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya natijalari va xulosalarining ishonchliligi muallif tomonidan tadqiqot ishiga doir xorijiy hamda mahalliy olimlar olib borgan ilmiy-nazariy, uslubiy tadqiqotlari asosida, foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi bilan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi hududlarda qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishga doir qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga qay darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalarni vakolatli

vazirlik, tuzilma va tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, qishloq xo‘jaligi faoliyatini iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlar qabul qilish, tarmoqdagi iqtisodiy muammolarni bartaraf etish va ularni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, agrar sektordagi statistik hisob-kitoblarni takomillashtirishda uslubiy jihatdan asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida qishloq xo‘jaligi sohasini statistik tadqiq qilish usullari, ixtisoslashgan dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatining zamonaviy ilg‘or innovatsiyalarini joriy etgan holda statistik jihatdan baholash, ilmiy-nazariy xulosalaridan oliy o‘quv yurtlarida “Statistika”, “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Ekonometrika asoslari” hamda “Moliyaviy statistika” fanlaridan o‘quv dasturlari ishlab chiqish va o‘quv adabiyotlari tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Agrar sektorda tarkibiy o‘zgarishlarni statistik baholash va ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “qishloq xo‘jaligi statistikasi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni agrar sektordagi iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni muntazam va tizimli hisobga olish, tahlil qilish, modellashtirish va prognozlash orqali qishloq xo‘jaligining holati va rivojlanish dinamikasi to‘g‘risida obyektiv, xolis va taqqoslama ma‘lumotlar bazasini shakllantirish jarayonlari tarmoq tarkibiy o‘zgarishlari bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar jihatidan takomillashtirilgan. Ushbu nazariy va uslubiy ma‘lumotlardan oliy ta‘limning “Statistika” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Moliyaviy statistika” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda 538-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 538-388-sonli o‘quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

agrar tarmoqdagi tarkibiy o‘zgarishlarni statistik baholash metodologiyasini Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2)ga ko‘ra iqtisodiy indeks usulini joriy etish asosida takomillashtirish orqali subtarmoqlar o‘rtasidagi dinamik o‘zgarishlar ta‘sirida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yalpi hajmini oshirish ( $MYaHqx = 8\%-12\%$ ) chegarasini asoslash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 04/23-11-606-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi agrar sektorda amalga oshiriladigan tadbirlarning samaradorligini oshirishda, xususan, mamlakatimizda statistika tizimini tubdan isloh qilish maqsadida olib borilayotgan islohotlar sifatida 2020–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida statistikani rivojlantirishning milliy strategiyasining agrar sektor yo‘nalishidagi vazifalarining ijrosini ta‘minlashga xizmat qilgan;

qishloq xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini ta‘minlashda yuqori samarali subyektlarni tanlash imkonini beruvchi

metodologiyani fermer, dehqon, klaster, agrofirma va kooperativlar kabi tashkiliy-huquqiy hamda mulkchilik shakllarini inobatga oluvchi jamlanma statistik ko'rsatkichlar orqali agregatlangan tahlil usuli asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 04/23-11-606-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5853-son Farmoniga muvofiq qishloq xo'jaligi subyektlarining rivojlanish darajasi, ularning asosiy tendensiyalaridagi tarkibiy o'zgarishlarini kompleks statistik baholash imkoniyatini yaratgan;

qishloq xo'jaligi tarmog'ida tuzilmaviy siljishlar samaradorligini oshirish maqsadida ekin maydonlarining agroiklimiy va resurs salohiyatiga mos ravishda qayta joylashtirishni modellashtiruvchi imitatsion tizim orqali ekinlardan olinadigan o'rtacha hosilni ( $O'He = 10\% - 15\%$ ) hamda agroiqtsodiy samaradorlikni ( $Sa = 20\%$ ) oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 04/23-11-606-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-oktabrdagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–387-sonli qaroriga asosan mamlakatimizda ekin maydonlari tuzilmasini takomillashtirish, iqtisodiy-matematik modellarni ishlab chiqish hamda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatini yaratgan;

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'idagi asosiy rivojlanish tendensiyalari bo'yicha natijaviy ko'rsatkichlarning ko'p omilli ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 04/23-11-606-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5853-son Farmoniga muvofiq statistik tahlil va prognozlashning zamonaviy uslublaridan samarali foydalanish darajalarini kengaytirish imkonini yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi natijalari 9 ta xalqaro va respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xalqaro jurnallarda 3 ta va mahalliy jurnallarda 9 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 213 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qishloq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgarishlarni statistik tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlanib, unda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslari, ularning tashkiliy va huquqiy jihatlari hamda statistik ko‘rsatkichlar tizimi batafsil yoritilgan.

Jahonda rivojlangan mamlakatlarni ham iqtisodiy noqulay holatlarga solib kelayotgan turli inqirozlar tufayli aholi hayot farovonligiga jiddiy salbiy ta‘sirler kuzatilayotgan davrda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i taraqqiy etgan mamlakatlarda insonlar hayoti farovonlik darajasining ijobiy holati saqlanib kelinmoqda. Bu hozirgi davrda barcha mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining eng muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib beradi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i taraqqiyoti tarmoqda ekologik toza mahsulotlar yetishtirish orqali mamlakatda qayta ishlash tizimi rivojlanishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari qishloq aholisi uchun ish o‘rinlari sonining ko‘payishiga xizmat qiladi. Shulardan kelib chiqib, dunyoda hanuz davom etayotgan global iqtisodiy inqirozga bog‘liq jiddiy muammolar sababli jahon bozorida yalpi talab hajmining keskin pasayib ketishi, raqobatning jiddiy ko‘rsatkichlarda kuchayib borishi milliy iqtisodiyotimizni sifat jihatdan tarkibiy o‘zgartirish va tarmoqlarni diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlari yaratish orqali bandlikni ta‘minlash, yurtimizda aholi daromadi va hayot farovonligini yaxshilashning eng samarali va tizimli yo‘nalishlarini joriy qilishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot ishida xorijiy va mahalliy olimlarning qishloq xo‘jaligi statistikasiga oid ilmiy qarashlari, yondashuvlari umumlashtirilib, qiyosiy tahlil etilib, qishloq xo‘jaligi statistikasiga mualliflik ilmiy ta‘rifi ishlab chiqildi. Bizning fikrimizcha, “qishloq xo‘jaligi statistikasi – qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining hozirgi holati, rivojlanishi va istiqbolini tavsiflovchi miqdoriy ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil etish hamda ularni sifat jihatidan baholash bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar majmuasidir”. Statistikaning mazkur yo‘nalishi raqobat sharoitida milliy iqtisodiyotning asosiy tarmog‘ining muhim qismini kompleks va tizimli o‘rganish usullari, qishloq xo‘jaligida mahsulotlarni yetishtirish holati, hajmi, tuzilishi, sifati, yer resurslarining salmog‘i, hosildorlik va mahsuldorlik kabi ko‘rsatkichlarni umumlashtirgan holda o‘rganib, kelgusida tarmoqni samarali boshqarish maqsadida qabul qilinadigan qarorlar samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Agrar sektor O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri

bo‘lib, bu yurtimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlash sanoati va xizmat ko‘rsatish sohalari uchun xomashyo manbai bo‘lish bilan birga O‘zbekistonning tashqi savdo jarayonlarida eksport salohiyati barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida fermer xo‘jaliklari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar faoliyat yuritadi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi (mlrd. so‘m)<sup>6</sup>


Hududlar	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.	2024 yilda 2019 yilga nisb. o‘zgar. %
Jami	216 283,1	250 250,6	303 415,5	345 191,7	405 418,0	444 586,4	2,1 m.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	8 208,1	9 751,6	11 511,8	13 348,2	15 212,1	17 970,7	2,2 m.
Andijon viloyati	23 686,7	26 096,1	30 413,0	35 587,4	41 035,7	46 494,9	196,2
Buxoro viloyati	19 182,1	23 876,0	28 529,3	32 867,5	37 174,5	41 871,5	2,2 m.
Jizzax viloyati	13 720,1	16 352,8	20 471,1	23 239,2	26 730,0	30 146,1	2,2 m.
Qashqadaryo viloyati	19 933,9	23 777,8	28 275,6	32 240,7	38 462,6	44 293,5	2,2 m.
Navoiy viloyati	9 467,8	11 309,7	14 547,2	15 151,7	18 318,9	21 813,1	2,4 m.
Namangan viloyati	15 509,0	17 913,1	21 596,1	25 157,7	30 015,6	35 800,2	2,4 m.
Samarqand viloyati	28 379,5	32 158,0	38 549,7	40 428,1	49 025,9	57 452,0	2,2 m.
Surxondaryo viloyati	17 844,1	19 424,0	23 415,5	26 755,7	32 849,3	36 655,9	2,0 m.
Sirdaryo viloyati	7 401,5	8 002,0	9 755,0	11 523,3	13 241,2	15 926,3	2,2 m.
Toshkent viloyati	20 417,1	23 875,1	29 538,3	33 010,7	38 779,8	44 379,0	2,2 m.
Farg‘ona viloyati	18 532,2	21 455,5	27 501,2	32 737,0	38 326,0	44 043,4	2,4 m.
Xorazm viloyati	14 001,0	16 258,9	19 311,7	23 144,5	26 246,4	30 194,9	2,2 m.

1-jadval ma’lumotlaridan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning eng yuqori hajmi Samarqand (57452,0 mlrd.so‘m), Andijon (46494,9 mlrd.so‘m) va Toshkent (44379,0 mlrd.so‘m) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yillar davomida doimiy o‘shish tendensiyasini saqlab kelmoqda (1-rasm).

Quyidagidagi 1-rasmda 2019-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi keltirilgan.


<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy web-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.



**1-rasm. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi, o'tgan yilga nisbatan, (%da)<sup>7</sup>**

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2019-yilda 103,3 % ga, 2020-yilda 102,7 ga, 2021- va 2022-yillarda 103 %, 2023-yilda 104,0 % ga hamda 2024-yilda 109,7 % ga o'sish kuzatilgan.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida dehqon va tomorqa xo'jaliklari, fermer xo'jaligi va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi ularning tarmoq rivojlanishidagi ulushini ko'rsatib beradi (2-rasm).



**2-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida tarkibiy bo'limlarning ulushi, (%da)<sup>8</sup>**


2-rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2019-yilda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi 3,8%ni, dehqon va tomorqa

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy web-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy web-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

xo'jaliklari 68,3 %ni, fermer xo'jaligi 27,9 %ni tashkil qilgan. 2020-yilda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi 4,4 %ni, dehqon va tomorqa xo'jaliklari 67,4 %ni, fermer xo'jaligi 28,2 %ni tashkil qilgan. 2021-yilda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi o'sishda davom etgan (4,4 %dan 5,2 %ga). Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi yana kamaygan (67,4 %dan 65,5 %ga), fermer xo'jaliklarining ulushi esa o'sgan (28,2 %dan 29,3 %ga). 2022-yilda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi sezilarli darajada oshgan (5,2 %dan 6,9 %ga). Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi keskin kamaygan (65,5 %dan 61,7 %ga), fermer xo'jaliklarining ulushi esa sezilarli darajada oshgan (29,3 %dan 31,4 %ga). 2023-yilda esa qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi o'sishda davom etgan (6,9 %dan 7,5 %ga). Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi biroz tiklangan (61,7 %dan 62,3 %ga), fermer xo'jaliklarining ulushi esa kamaygan (31,4 %dan 30,2 %ga). 2024-yilda esa qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi (7,5 %dan 7,2 %ga). Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi biroz tiklangan (62,3 %dan 63,1 %ga), fermer xo'jaliklarining ulushi esa kamaygan (30,2 %dan 29,7 %ga).

Quyidagi 3-rasmda qishloq xo'jaligi tarmog'ida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmining o'sish sur'ati keltirilgan.



**3-rasm. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmining o'sish sur'ati, (yillik,%da)<sup>9</sup>**

Yuqoridagi 3-rasmda 2019-yilda hamda 2024-yillarda qishloq xo'jaligi tarmog'ida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi fermer xo'jaliklarida mos ravishda 113,8 % va 104,8 %ni, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 123,5 % va 103,3 % hamda dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 100,2 % va 106,2 % o'sish sur'ati kuzatilgan. E'tiborli jihati dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yuqori o'sish sur'atini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy web-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Statistik ma'lumotlar yillar davomida ko'rsatkichlarning ko'tarilish tendensiyasini namoyon qilmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi tashkilotlarining dehqonchilikda rolini oshirayotganini anglatadi. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va davlat agrar siyosatining asosiy maqsadlarini ifodalab beradi. Shu bilan birga tarmoqning rivojlanishi davlat tomonidan beriladigan e'tibor va yaratiladigan iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoit yaratilishi va huquqiy himoya qilinishiga bog'liq hisoblanadi. Bunda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish uchun turli maqsadlarni ko'zlab davlat agrar siyosat yuritadi (2-jadval).

## 2-jadval

### O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va davlat agrar siyosatining asosiy maqsadlari<sup>10</sup>

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish	Davlat agrar siyosati
1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish	1. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyojlarini qondirish uchun mulkiy resurslarni ishlab chiqarish hajmini ta'minlash. Ishlab chiqaruvchilarning mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlashi
2. Daromadlar o'sishi va kredit resurslari hisobiga qishloq xo'jaligi subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash	2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan tabiiy resurslardan foydalanishni saqlash va ko'paytirish
3. Qishloq xo'jaligining ustuvor sohalari jadal rivojlanishini ta'minlash	3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining samarali faoliyat yurituvchi bozorini shakllantirish, agrar tarmoq subyektlari rentabelligini oshirishni ta'minlash va ushbu bozor infratuzilmasini rivojlantirish
4. Agrar tarmoq subyektlarining asosiy fondlarini yangilash, tarmoqni texnik va texnologik modernizatsiyalashni ta'minlash	4. Qulay investitsiya muhitini yaratish va qishloq xo'jaligiga investitsiya hajmini oshirish
5. Tashqi savdo va monopoliyaga qarshi kurashni tartibga solish	5. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish
6. Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlash, qishloq aholisining bandlegi va turmush darajasini oshirish	6. Qishloq xo'jaligini kadrlar bilan ta'minlash
7. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga konsalting xizmatlarini ko'rsatish, innovatsion faoliyatini rag'batlantirish	7. Yerdan va qishloq xo'jaligining mulkiy majmuasidan foydalanishni ta'minlash
8. Davlat agrar siyosatini amalga oshirishda axborot ta'minoti	8. Agrar tarmoq bo'yicha axborotlar bazasini shakllantirish va uni doimiy yuritish

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasi va undagi siljishlar yo'nalishlarini barcha tarmoqlar bo'yicha kompleks statistik o'rganish muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida tarkibiy o'zgarishlarning samarali yo'llarini statistik usullar asosida ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, tuzilma ko'rsatkichlarining dinamik tahlili – iqtisodiy jarayonlarning vaqt mobaynida rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishning eng muhim vositalaridan biridir. Ma'lumki, tuzilmani miqdoran baholash va undagi siljishlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini o'lchashda turli statistik usullar qo'llaniladi: umumlashtiruvchi statistik ko'rsatkichlar, turli ko'rinishdagi

<sup>10</sup> Muallif ishlanmasi.

guruhlashtirish, ko'p o'lchamli guruhlashtirish usuli, omilli tahlil usullari (shu jumladan, indeksli, korrelyatsion-regression tahlil usuli, dispersion tahlil), rayonlashtirish va hokazo. Odatda tuzilmani tashkil etuvchi ulushlar orasidagi tafovutni, ya'ni tarkibiy siljishlarning tezligi va jadalligini yoki ulushlar rangi (tartib raqami bo'yicha o'rnini) orasidagi tafovutni statistik jihatdan umumlashtirilgan holda miqdoran baholashda variatsion ko'rsatkichlar usuli, tarkibiy siljishlarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini baholashda korrelyatsion-regression tahlil va ayniqsa, indeks usuli keng qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida ikki davrning tarkibiy siljishlarini statistik baholash quyidagi maqsadlar asosida amalga oshiriladi: agrar sektorni tashkil qiluvchi ulushlarining bir davrda boshqa davrga nisbatan o'zgarishini aniqlash; tarkibiy siljishlar kuchini, keskinligini umumlashtirilgan holda miqdoran baholash.

Ikki yoki undan ortiq davrlarda sodir bo'lgan tarkibiy siljishlarni statistik baholash uchun ikki guruh ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

1. To'plamning bir turdagi qismlarini ifodalovchi ulushlar orasidagi farqqa asoslangan ko'rsatkichlar.

2. To'plamning bir turdagi qismlarini ifodalovchi ulushlarning nisbatiga asoslangan ko'rsatkichlar.

Birinchi guruhning dastlabki ko'rsatkichi, to'plamning  $i$ -qismini ifodalovchi ulushlarning "mutlaq" qo'shimcha o'sishi bo'lib, bunda ulushlarning "mutlaq" qo'shimcha o'sishini o'rganishda "mutlaq" iborasini qo'shtirnoq ichiga olish qabul qilingan, chunki bu ko'rsatkich o'lchov birligi jihatidan emas, hisoblash usuli jihatidan mutlaq ko'rsatkich hisoblanishi kerak bo'lib, u ma'lum tarkibiy qismning  $j$  davrda  $j-1$  davrga nisbatan necha punktga ko'payganini yoki kamayganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning davlat va aholi uchun muhim funksiyalarni bajaruvchi strategik ko'p funksional tarmog'i hisoblanadi. Qishloq xo'jaligining iqtisodiy ahamiyati shundan iboratki, unda turli tarmoqlararo aloqalar orqali mazkur tarmoqning rivojlanishidan sinergetik samaraga erishish mumkin. Qishloq xo'jaligi multiplikativ xususiyatlarga ega bo'lib, inqiroz sharoitida mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ni ko'paytirishning deyarli cheklanmagan zaxiralarini ishga solish imkonini beruvchi iqtisodiy lokomotivga aylanishi mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotni energetika xomashyosini eksport qilishdan qishloq xo'jaligini ustuvor rivojlantirishga qayta yo'naltirish agrosanoat majmuasi (ASM) barcha tarmoqlari korxonalarining ish bilan band bo'lishini, aholi bandligi darajasining oshishini, ko'plab ijtimoiy muammolarning hal etilishini va qishloq hududlarining barqaror rivojlanishini ta'minlagan holda mamlakat YaIMni bir necha barobar oshirish imkonini beradi.

Metodologik jihatdan statistika idoralari bugungi kunda fermer xo'jaliklari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarda yetishtirilayotgan mahsulotlarning statistik tahlilini 1-FX shakli (yillik) "Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 2-FX shakli (yilda 2 marta) "Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 1-DX shakli (yilda 2 marta) "Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari faoliyati to'g'risida hisobot", 1-QX shakli (yillik) "Qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 4-QX shakli

(choraklik) “Qishloq xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risida hisobot” hamda 1- KB (QX) shakli (yillik) “Mikrofirma va kichik korxonaning qishloq xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risida hisobot”lar asosida shakllantirib boradilar.

Dissertatsiyaning “O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining tarkibiy faoliyatini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi va ularning iqtisodiy-statistik tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligidagi asosiy tendensiyalarni statistik tahlili, ularga ta‘sir qiluvchi omillar yoritilgan.


“Mamlakatimizda iqtisodiyotning haqiqiy “drayveri” bo‘lgan agrar sohada iqtisodiyotda band ishchi kuchining qariyb 26 foizi faoliyat yuritadi va yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 26 foizi mazkur sektor hissasiga to‘g‘ri keladi”<sup>11</sup>.

Respublikamizda 2010–2024-yillar mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining qo‘shimcha o‘sish sur‘ati qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 61,9 foizga, qishloq xo‘jaligida esa 62,3 foizga teng bo‘lib, uning hissasi agrar soha mahsulotida 94,2-96,6 foizni tashkil etmoqda.

Mamlakatimizning ayrim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi dinamik o‘zgarishlar tarmoq rivojlanishida o‘zaro aloqadorlik jihatlarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi YaIM hajmi joriy narxlarda 1 066 569,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022-yil bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o‘ydi.

Joriy yil boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) soni – 37 772 birlikni, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlarda – 34 831 birlikni, o‘rmon xo‘jaligida – 239 birlikni hamda baliqchilik xo‘jaligida – 2 702 birlikni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining yalpi hududiy mahsulot (YaHM) tarkibidagi ulushi mamlakat iqtisodiyotida agrar tarmoqning hududlar kesimidagi salmog‘ini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi (4-rasm).



**4-rasm. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining 2023-yil YaHM tarkibidagi ulushi, (%da)<sup>12</sup>**

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy web-sayti ma‘lumotlari.

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy web-sayti ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot (YaIM) (yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ)) tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 24,3 %ni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulush Jizzax viloyatiga (49,2 %) to'g'ri kelsa, aksincha kam ulushga ega hududga Navoiy viloyatini (13,9 %) keltirib o'tish mumkin.

“2023-yil yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4,1 % (2022-yilda – 3,6 %) darajasida ijobiy o'sish qayd etildi. Ushbu ijobiy o'sish sur'atlari chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,7 % (2022-yilda – 3,3 %)ga o'sishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, joriy davrda dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish esa 4,2 % (2022-yilda 3,8 %)ga o'sdi”<sup>13</sup>.

Keyingi yillarda mamlakatimizning statistika sohasida ham ko'plab o'zgarishlar kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi statistikasi amaliyotida 2016-yilga qadar tasniflash iqtisodiyot tarmoqlarining umumdavlat tasniflagichi (XXTUT) asosida yirik guruhlar bo'yicha taqdim etilgan. Shundan keyin biroz vaqt iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi IFUT-1 tahririga hamda 2017-yil 1-yanvardan esa xalqaro andozalarga muvofiq keluvchi (IFUT-2)ga o'tildi<sup>14</sup>. IFUT-2da faoliyat turlarini guruhlash yakuniy mahsulotlar, ishlab chiqarish omillari va jarayonlarining bir xilligidan kelib chiqib amalga oshiriladi, ya'ni bir xo'jalik subyekti turli sinflarga va hatto seksiyalarga taalluqli faoliyatni amalga oshirishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, o'rganilayotgan obyektning tahlil qilish sharoitini yengillashtiradi hamda statistik ma'lumotlarni tayyorlash uchun asos bo'ladi va undan quyidagilarda foydalaniladi: statistik birliklar taqdim etgan birlamchi statistikada, shuningdek, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonida; milliy hisobchilik tizimi asosida makroiqtisodiy hisob-kitoblarni amalga oshirishda; xalqaro statistik ma'lumotlar almashinuvida; respublika va hududiy bosqichlarda iqtisodiy-statistik tahlilni amalga oshirish uchun; boshqaruv organlari, vazirliklar va muassasalar, ilmiy-tekshirish muassasalarining kundalik iqtisodiy amaliyotida.

Qishloq xo'jaligining tarmoq tuzilmasi 2016-yilgacha iqtisodiyot tarmoqlarining umumdavlat tasniflagichi bo'yicha tasniflangan. Bu tasniflashda institutsional birliklar yetishtirilgan asosiy mahsulotlar bo'yicha tarmoqlarga birlashtiriladi. Bir tarafdin olib qaralganda XXTUT bo'yicha tasniflash oddiy ko'rinadi, lekin shuni ham unutmaslik kerakki, bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'iga o'rmonchilik hamda baliqchilik xo'jaliklari ham qo'shilgan. Buning natijasida hisob-kitob jarayonida umumiy holda “Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi” deb nom olgan yangi tarmoq yoki tasniflash nuqtayi nazaridan olib qaraganda A seksiyani vujudga keltirdi. Mazkur tarmoq 3 ta bo'lim (dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish; o'rmonchilik va yog'och tayyorlash; baliq ovlash va akvakultura)ni o'z ichiga olgan. Birinchi bo'lim 7 ta guruh, 31 ta sinf hamda 9 ta kichik sinfchalardan tashkil topgan. Ikkinchi bo'lim esa 4 ta guruh, 4 ta sinf va 4 ta kichik sinfchalardan iborat bo'lib, oxirgi

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy web-sayti ma'lumotlari.

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi 275-sonli “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

bo'lim 2 ta guruh, 4 ta sinf va 4 ta kichik sinfchalarni o'z ichiga qamrab olgan.

Bu tasniflashlarga ko'ra, IFUT-2 tasniflash turi XXTUT tasniflash turiga qaraganda ko'proq elementlarni o'z ichiga qamrab olgan. IFUT-2 hisob-kitob ishlari hamda xalqaro statistik ma'lumotlari almashuvini qulaylashtirishga xizmat qiladi. Bu esa O'zbekistonda keyingi vaqtlarda statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va ma'lumotlar shaffofligini ta'minlashga imkon yaratayotganligidan dalolat berib kelmoqda.

Shuningdek, ilmiy ishda mamlakatimiz qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida yig'iladigan statistik ko'rsatkichlar tizimi va indikatorlar tarkibini hisoblashda qo'llaniladigan uslublarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, hisob-kitob tizimini yaxshilash va tarmoqning rivojlanishini kompleks statistik baholash borasida bir qator ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotidagi qishloq xo'jaligi sektorining ahamiyati yuqori bo'lib, uning YaIMdagi ulushi o'rtacha 25% ni tashkil etadi. So'nggi yillarda agrar sohada tarkibiy o'zgarishlar, xususan, paxta va g'alla maydonlarini diversifikatsiya qilish, chorvachilik va baliqchilikni rivojlantirish orqali yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti (MYaHqx) hajmini oshirish maqsadlari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi rivojlanish strategiyasi (2020-2030) doirasida yillik o'sish sur'atlari 3-5% ga yetishi kutilmoqda, ammo iqtisodiy indeks usulini joriy etish orqali 8-12% o'sish chegarasiga erishish imkoniyati mavjud. Ushbu ilmiy ish IFUT-2 asosida tarkibiy o'zgarishlarni statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish va uning qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmini oshirishdagi ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlandi.

**IFUT-2 asosida statistik baholash metodologiyasi**, xalqaro NACE Rev.2 standartiga moslashtirilgan holda, O'zbekiston qishloq xo'jaligi subtarmoqlarini (o'simlikchilik – 01.1, chorvachilik – 01.4, baliqchilik – 03.2) aniq tasniflash imkonini beradi. Bu tasniflagich statistik ma'lumotlarni guruhlash, jamlash va tahlil qilishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Mavjud metodologiyada statistik ma'lumotlarning shaffofligi va to'liqligi masalalari mavjud.

Takomillashtirilgan metodologiya quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

**Ma'lumotlarni IFUT-2 bo'yicha tasniflash:** Subtarmoqlar bo'yicha mahsulot hajmi, hosildorlik va iqtisodiy ko'rsatkichlar (daromad, xarajat, rentabellik) IFUT-2 kodlari asosida guruhlanadi. Masalan, o'simlikchilikda paxta (01.16) va sabzavot (01.13) mahsulotlari alohida tahlil qilinadi.

**Iqtisodiy indeks usuli:** Tarkibiy siljish indeksi (TSI) orqali subtarmoqlar o'rtasidagi o'zgarishlar baholanadi. TSI quyidagi formula asosida hisoblanadi:  $I_{ts} = \sum (S_{i,t} - S_{i,0}) \times P_i$  bu erda  $S_{i,t}$  -  $i$ -subtarmoq ulushi  $t$ -vaqtida,  $S_{i,0}$  - bazoviy ulush,  $P_i$  - produktivlik ko'rsatkich. Ushbu indeks subtarmoqlarning mahsulot hajmidagi o'zgarishlarini aniqlashda samarali.

**Statistik ma'lumotlar bazasini kengaytirish:** Jahon Banki (2020) hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotining 80% i dehqon xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqariladi, bu esa tarkibiy o'zgarishlarning (kolxozlardan dehqon xo'jaliklariga o'tish) muhim ta'sirini ko'rsatadi. IFUT-2 asosida

ma'lumotlarni tizimlashtirish orqali ushbu o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti yalpi hajmini 8-12% ga oshirish uchun IFUT-2 asosida statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish zarur. Tadqiqotda quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etildi:

1. **Ma'lumotlar bazasini kengaytirish:** Stat.uz tomonidan IFUT-2 bo'yicha yillik hisobotlarni shaffoflashtirish va qishloq xo'jaligi sensusi ma'lumotlarini kengroq joriy etish.

2. **Indeks usulini joriy etish:** tarkibiy siljish indeksini subtarmoqlar (o'simlikchilik, chorvachilik, baliqchilik) bo'yicha qo'llash va mahsulot hajmi o'sishini modellashtirish.

3. **Islohotlar:** paxta va g'alla maydonlarini diversifikatsiya qilish, suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalarni jalb etish.

Umumlashtirib aytganda, IFUT-2 asosida iqtisodiy indeks usulini joriy etish O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsuloti yalpi hajmini 8-12% ga oshirish imkonini beradi. Bu yondashuv tarkibiy o'zgarishlarni aniq baholash va strategik maqsadlarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati ( $I_{qp}$ ), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida yaratilgan mahsulotlarni jismoniy hajm indeksi ( $I_q$ ) hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida yaratilgan mahsulotlar narxining umumiy agregat indeksi ( $I_p$ )lari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar ilmiy tadqiq etilgan. Ular orasidagi o'zaro bog'lanishlar quyidagi formulalar asosida ifodalangan:

1. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning umumiy indeksi ( $I_{qp}$ ):

$$I_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} \quad (1)$$

bu yerda:  $q_1$  va  $q_0$  – joriy va bazis davrlardagi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hajmi;  $p_1$  va  $p_0$  – joriy va bazis davrlardagi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotining bir birligini narxi.

2. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida yaratilgan mahsulotlarning jismoniy hajm umumiy indeksi ( $I_q$ ):

$$I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} \quad (2)$$

Ushbu indeksning mazmuni joriy davrda taqqoslama narxlardagi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'tgan davrdagi bazis narxlardagi ushbu mahsulotlar qiymatiga nisbatini ifodalaydi.

3. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida yaratilgan mahsulotlar narxining umumiy agregat indeksi ( $I_p$ ):

$$I_p = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0} \quad (3)$$

Mazkur indeksning iqtisodiy mazmuni shundaki, joriy davrdagi joriy narxlarida ifodalangan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hajmining taqqoslama narxlardagi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hajmiga nisbatan o'zgarishini ifodalaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i faoliyatini ifodalovchi umumiy indekslar orasidagi o'zaro bog'lanish quyidagiga teng:

$$I_{qp} = I_q \times I_p$$

yoki

$$\frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} \times \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0} \quad (4)$$


Tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida statistika axborotlarini yig'ish va topshirish tartiblarida muhim o'zgarishlarni belgilash biznes yuritishga qulayliklarni yaratishda ham muhim masala hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotda bu borada qilinadigan muhim o'zgarishlar qatoriga quyidagilarni kiritish tavsiya etildi:

tarmoq hisobotlarini tuzish va topshirish tartiblarini soddalashtirilgan shakllarini qo'llash, ularning dasturiy ta'minotlarini muqobillashtirish hamda xalqaro standartlarga mos keluvchi tizimini joriy etish;

dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini hisobga oluvchi statistika hisobotlarining qiyosiy tahlilini ta'minlash maqsadida, jamlangan ma'lumotlarning akslantirilganlik taomiliga o'tish. Ya'ni qishloq xo'jaligi subyektlari faqat axborot beruvchi emas, balki oluvchi bo'g'inga ham aylanishi lozim;

xo'jalik yurituvchi subyektlarning statistika hisobotlari innovatsiyalar, innovatsion mahsulotlar, intellektual kapital, kapital samaradorligi, innovatsion texnologiyalar kabi muhim ko'rsatkichlar bilan to'ldirilishi lozim va h.k.

Biror hudud miqyosida ekin maydonlari tuzilmasini takomillashtirish iqtisodiy-matematik modellarni ishlab chiqish va ularni joriy qilishni talab etadi (5-rasm).



**5-rasm. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida tuzilmaviy siljishlar samaradorligini oshirishda ekinlarni optimal joylashtirishning imitatsion tizimi<sup>15</sup>**

<sup>15</sup> Muallif ishlanmasi.

Ekinlarni optimal joylashtirishning iqtisodiy-matematik masalasi qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan boshqa turdagi masalalardan hajmi kattaligi bilan ajralib turadi. Masala hajmini undagi hududlarni yiriklashtirish orqali kichraytirish mumkin. Iqtisodiy-matematik modellar qo‘llanilgan dastlabki tadqiqotlarda optimallashtirish masalasi xo‘jalik miqyosida yechilgan. Blokli modellashtirish hududlararo yoki xo‘jaliklararo qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini optimal joylashtirish imkonini beradi. Model bo‘yicha respublika ekin turlarini optimal joylashtirish masalasini yechishda umumiy bog‘lovchi blok orqali bog‘langan alohida bloklarni o‘z ichiga olgan yagona matritsadan foydalanish lozim deb topildi.

Bu modeldan natijalar olish imitatsion tizimga asoslanadi.

Imitatsion tizim ishlash tartibi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Ekspert kiritiladigan parametrlar (natural va qiymat)ni aniqlaydi, tayyorlaydi va kompyuterga kiritadi.

2. Kompyuterda ekinlarni joylashtirish bo‘yicha hisoblar bajariladi va bosmaga chiqariladi.

3. Ekspert olingan natijalarning statistik tahlilini amalga oshiradi (kompyuterda o‘zgarmas tarkibli, o‘zgaruvchan tarkibli va tuzilmaviy siljishlar indeksleri hisoblanadi).

4. Ekspert hisob natijalarini strategik rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan taqqoslaydi. Olingan natijalar ekspertni qanoatlantirsa, u natijalarni bosmaga chiqaradi va qaror qabul qiladi.

Tarmoqdagi tarkibiy o‘zgarishlar, ya’ni ekin maydonlarini bozor talabi, agroiqlimiy imkoniyatlar va resurs cheklovlariga mos ravishda qayta joylashtirish jarayoni agrar salohiyatdan to‘laroq foydalanish imkoniyatini beradi. Shu maqsadda ilmiy ishda ekin maydonlarining to‘g‘ri taqsimotini ta’minlaydigan va natijada o‘rtacha hosildorlik hamda agroiqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatini baholovchi **imitatsion model** ishlab chiqildi.

Tadqiqotda dastlab qishloq xo‘jaligi yerlari va ularda ekilgan turli ekinlar bo‘yicha 3–5 yillik ma’lumotlar tahlil qilindi. Bu yerda har bir hudud (tuman) va ekin turi kesimida quyidagi ko‘rsatkichlar shakllantirildi: maydon (ga); hosildorlik ( $t/ga$ ); ishlab chiqarish hajmi ( $t$ ); suv sarfi ( $m^3/ga$ ); ishlab chiqarish xarajatlari va qiymat ko‘rsatkichlari.

Modelda har bir maydon va ekin uchun muvofiqlik indeksi ( $S$ ) hisoblab chiqildi. Bu indeks tuproqning mexanik tarkibi, sho‘rlanish darajasi, suv ta’minoti, relyef va iqlim sharoitlariga qarab 0 dan 1 gacha bo‘lgan shkalada belgilandi. Shu bilan birga, quyidagi cheklovlar nazarda tutildi: yer maydonlarining umumiy limiti; suv resurslari taqsimoti; mehnat va texnika quvvati; agrotexnik talablar va sevooborot qoidalari; strategik ahamiyatga ega ekinlar uchun minimal maydonlar.

Ekinlarning hosildorligi turli omillarga javoban o‘zgarishi inobatga olindi. Jumladan: sug‘orish me’yori; o‘g‘itlar va yuqori sifatli urug‘lar qo‘llanilishi; agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida bajarilishi.

Hosildorlik quyidagi ko‘rinishda baholandi:

$$y_{i,c} = y_{i,c}^{pot} \cdot S_{i,c} \cdot f_{suvi} \cdot f_{tex} \cdot \epsilon_{i,c} \quad (5)$$

bu yerda:

- $y_{i,c}^{pot}$  — potensial hosildorlik;
- $S_{i,c}$  — agroiqlimiy muvofiqlik indeksi;
- $f_{suvi}$ ,  $f_{tex}$  — suv va agrotexnikadan foydalanish koeffitsiyentlari;
- $\epsilon_{i,c}$  — iqlimiy yillik o'zgarishlar.

Modelning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat bo'ldi:

1. Umumiy o'rtacha hosildorlikni oshirish.
2. Agroiqtisodiy samaradorlikni (qo'shilgan qiymat, suvdan foydalanish samarasi) ko'tarish.

Natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:

- Ekin maydonlarini agroiqlimiy muvofiqlik va suv ta'minotiga qarab qayta taqsimlash orqali o'rtacha hosildorlik (O'He) 10–15% ga oshishi mumkinligi asoslandi. Masalan, don ekinlari va bog'dorchilikka mos hududlarda ularning maydonlarini kengaytirish hisobidan bu natijaga erishildi.

- Iqtisodiy jihatdan esa, ekinlarni optimal joylashtirish orqali agroiqtisodiy samaradorlik ( $S_a$ ) 20% atrofida oshishi ko'rsatildi. Bu esa umumiy yalpi marja va suv birligiga to'g'ri keladigan foydaning ko'payishi bilan namoyon bo'ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni agroiqlimiy va resurs salohiyatidan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan ravishda amalga oshirish katta iqtisodiy va agrar samara berishi mumkin. Model natijalariga ko'ra, ekin maydonlarini qayta taqsimlash orqali o'rtacha hosildorlikni 10–15% va agroiqtisodiy samaradorlikni 20% atrofida oshirish imkoniyati mavjud. Bu esa agrar siyosatda resurs tejamkorligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy ishning uchinchi bobi **“O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining samaradorligi va tarkibiy o‘zgarishlarini baholash uslubiyotini takomillashtirish”**ga bag'ishlangan bo'lib, unda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini kompleks statistik baholash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish jarayonlarini dinamika qatorlari usulidagi tahlilini takomillashtirish hamda qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni baholash uslubiyotini takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.

Raqobat sharoitida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati uning bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining sifati ularning turlariga mos ravishdagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligi statistikasida iqtisodiy indekslar ikkita savolga javob beradi. Ya'ni:

1. Hisobot davrda bazis davrga nisbatan iqtisodiy ko'rsatkichlar (ekin maydoni, yalpi hosil, hosildorlik) qanchaga o'zgarganligini ifodalaydi.

2. Ushbu o'zgarishlarga omillarning ta'siri qanday darajada bo'lganligini.

Odatda dehqonchilik sohasida qo'llanilgan indekslar 2 turga ajratiladi, ya'ni:

1. Alohida olingan xo'jaliklarda (dehqon xo'jaligi, fermer xo'jaligi) hisobot davrda bazis davrga nisbatan o'zgarishlarni ifodalaydi.

Bular individual indeks ( $i$ ) deb ataladi.

O'z navbatida dehqonchilik mahsulotlarning hosildorligini individual indeks  $i$  quyidagicha aniqlanadi:

$$i_x = x_1 : x_0 \quad (6)$$

bu yerda:

- $i_x$  – hosildorlikning individual indeksi;
- $x_1$  – hisobot davridagi hosildorlik darajasi;
- $x_0$  – bazis davrdagi hosildorlik darajasi.

2. Umumiy agregat indekslar.

Bir necha xo‘jaliklar bo‘yicha hisobot davrda bazis davrga nisbatan o‘zgarishlarni iqtisodiy statistik tahlil qilishda umumiy agregat indeks (J)lardan foydalaniladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hosildorligini umumiy indeksi 3 turga ajratiladi:

1. Hosildorlikning o‘zgaruvchan tarkibli umumiy indeksi ( $J_{o'zg.tark.}$ )

$$J_{o'zg.tark.} = \frac{\sum Y_1 P_1}{\sum P_1} : \frac{\sum Y_0 P_0}{\sum P_0} = \bar{Y}_1 : \bar{Y}_0 \quad (7)$$

Bu yerda:

- $Y_1$  – hisobot davrdagi hosildorlik darajasi;
- $P_1$  – hisobot davrdagi ekin maydoni hajmi;
- $Y_0$  – bazis davrdagi hosildorlik darajasi;
- $P_0$  – bazis davrdagi ekin maydoni hajmi;
- $\bar{Y}_1$  – hisobot davrdagi o‘rtacha hosildorlik darajasi;
- $\bar{Y}_0$  – bazis davrdagi o‘rtacha hosildorlik darajasi.

Dehqonchilik sohasida hosildorlikning o‘zgaruvchan tarkibli umumiy indeksi ( $J_{o'zg.tark.}$ )ning o‘zgarishiga ikkita omil ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni:

- 1-omil: alohida olingan xo‘jaliklarda hosildorlik darajasining o‘zgarishi;
- 2-omil: ekin maydonlari tarkibiy tuzilmasidagi o‘zgarishlar.

1-omil hisobiga hosildorlikning doimiy tarkibli umumiy indeksi ( $J_{doim.tark.}$ )

2-omil hisobiga hosildorlikning tarkibiy siljishli umumiy indeksi aniqlanadi.

2. Hosildorlikning doimiy tarkibli umumiy indeksi ( $J_{doim.tark.}$ ) quyidagi formula bilan hisoblanadi, ya’ni:

$$J_{doim.tark.} = \frac{\sum Y_1 P_1}{\sum Y_1 P_0} \quad (8)$$

3. Hosildorlikning tarkibiy siljishli umumiy indeksi ( $J_{tark.silj.}$ ) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$J_{tark.silj.} = \frac{J_{o'zg.tark.}}{J_{doim.tark.}} \quad (9)$$

Odatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yalpi hosilning mutlaq o‘zgarishiga ikkita omil ta’sir etadi.

1-omil: ekstensiv omil ya’ni ekin maydonlari hajmining o‘zgarishi:

$$\Delta Q_{EM} = (EM_1 - EM_0) \cdot Y_0 \quad (10)$$

2-omil: innovatsion omil ya’ni o‘rtacha hosildorlik darajasini o‘zgarishi:

$$\Delta Q_H = (H_1 - H_0) \cdot EM_1 \quad (11)$$

Yalpi mahsulotning qo‘shimcha o‘shishi (kamayishi) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\Delta Q = Q_1 - Q_0 \quad (12)$$


Ushbu indekslar orasidagi o‘zaro bog‘lanish formulasi quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Q = (\Delta Q_{EM} + \Delta Q_H) \quad (13)$$

Aynan dehqonchilik sohasidagi ushbu indekslarning keng qo‘llanilishi hosildorlik darajasi va dinamikasi kompleks statistik tahlil qilishga hamda yalpi hosil darajasidan tarkibiy o‘zgarishlarni haqiqiy baholashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining tarkibiy o‘zgarishlarini ekonometrik modellarini tuzish va prognozlash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish jarayonlari ekonometrik modellar yordamida tahlil qilinib, qishloq xo‘jaligi faoliyati samaradorligiga ta‘sir qiluvchi omillar statistik baholash orqali, maqbullari bo‘yicha ekonometrik modellar yordamida prognozlar ishlab chiqilgan.

Quyidagi 6-rasmda agrobiznes majmuasining tarkibiy tuzilmasi va samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar keltirilgan.



**6-rasm. Taklif etilayotgan agrobiznes majmuasining tarkibiy tuzilmasi va samaradorligi<sup>16</sup>**

Fikrimizcha, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish uchun sanoatning innovatsion rivojlanish yo‘llariga o‘tkazish kerak. Biroq, hozirgi

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi.

sharoitda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faoliyati juda past. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni boshqarishning samarali mexanizmini yaratish uchun O‘zbekistonning har bir mintaqasida mintaqaviy ixtisoslashtirilgan agrobiznes markazlarini yaratishni taklif etamiz. Qishloq xo‘jaligining innovatsion rivojlanishiga asosan mintaqaning ilmiy, o‘quv, ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatlarini yagona agrar-innovatsion kompleksga aylantirish va mintaqada innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun iqtisodiy sharoitlarni yaratish asosida erishish mumkin (6-rasm).

Mintaqaviy ixtisoslashtirilgan agrobiznes markazining asosiy vazifalari: Agrobiznes majmuasida hududiy innovatsiya siyosatini shakllantirishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish usullarini takomillashtirish; mintaqaning qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash; qishloq xo‘jalik korxonalarining innovatsion faoliyatini muvofiqlashtirish; agrar innovatsiyalar bozorini monitoring qilish; innovatsion faoliyat sohasidagi qishloq xo‘jaligi korxonalarining axborot-kommunikatsiya ta‘minoti; agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsiyalardan foydalanishning mumkinligini tanlash va dastlabki baholash; innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar tayyorlash va ularni joriy etishda konsalting xizmatlarini ko‘rsatish; agrobiznes majmuasi sohasida mintaqaning rivojlanish dasturiga kiritilishi mumkin bo‘lgan ustuvor innovatsion va investitsiya loyihalari bazasini shakllantirish; innovatsion loyihalarni amalga oshirishda maxsus soliq tartibi, imtiyozli bojxona tariflari va boshqa imtiyozlarni olishda yordam berish; agrar innovatsiyalarni va davlat imtiyozlarini olgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazorat qilish.

Innovatsion faoliyatni moliyaviy, tashkiliy, marketing va axborot bilan ta‘minlash bilan mintaqaviy ixtisoslashtirilgan agrar-innovatsion markazlarni tashkil etish innovatsiyalarni samarali tatbiq etish, qishloq xo‘jaligida innovatsion loyihalarni amalga oshirishda qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga yordam beradi. Tadqiqot davomida hududlarda qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini aniqlaymiz (3-jadval).

Bizning fikrimizcha, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini muntazam ishlab chiqaruvchilar bilan birgalikda shaxsiy fermalari bo‘lgan fuqarolar ishlab chiqarish kooperativini tashkil etish yo‘li bilan chorvachilikda innovatsiyalarni joriy etish mexanizmini yaratishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, zamonaviy sharoitda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda aholining katta qismi muhim o‘rin egallaydi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishlab chiqarishni, mehnat va boshqarishni tashkil etishda, uning texnik hamda texnologik imkoniyatlarida ifodalangan ishlab chiqarish salohiyati – innovatsiyalarni o‘z vaqtida ta‘minlab beradigan elementdir. Korxonaning ishlab chiqarish salohiyati qancha yuqori bo‘lsa, mahsulot ishlab chiqarishga va uning sifatiga qilinadigan xarajatlar ulushining darajasi shuncha past bo‘ladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning, raqobatchilar tovarlarining sifatidan yuqori turuvchi sifati, innovatsion salohiyatning moddiy ifodalovchisidir.

**Hududlarda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining innovatsion rivojlanishining  
asosiy yo‘nalishlari<sup>17</sup>**

Innovatsiyalar	Kutilayotgan natijalar
<b>Dehqonchilik sohasida</b>	
1. An’anaviy seleksiyadan foydalanib, kasalliklarga chidamli yangi ekinlarning yuqori unumdor turlarini joriy etish	Ekinlar hosildorligini oshirish hamda don sifatini yaxshilash
2. Yerdan samarali foydalanish, suvni tejash texnologiyalarining yangi tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish	Tuproq unumdorligini saqlash, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish
3. Qishloq xo‘jaligi texnologik jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash uchun resurslarni tejaydigan tizimlarni ishlab chiqish va joriy etish	Mehnat unumdorligini oshirish, mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish uchun xarajatlarni kamaytirish
4. O‘simlik kasalliklari va zararkunandalarga qarshi kurashish maqsadida yuqori samarali biopreparatlardan foydalanish	Mahsulotlarning hosildorligi va sifatini oshirish
<b>Chorvachilik sohasida</b>	
1. Qishloq xo‘jaligida chorva mollarini yuqori nasldor turlarini ko‘paytirish	Chorvachilik mollarining mahsuldorligini oshirish va podaning zot tarkibini yaxshilash
2. Hududlarda xorijiy zotdor qishloq xo‘jaligi nasldor chorva mollarini ko‘paytirish	Chorva mollarining mahsuldorligini oshirish va podaning naslchilik tarkibini yaxshilashga xarajatlarni kamaytirish
3. Chorvachilikda texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalash uchun yangi resurslarni tejovchi axborot tizimlarni yaratish	Mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirish
4. Chorva mollarining oziqlantirish tizimlarini takomillashtirish	Chorva mollarining mahsuldorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash
5. Chorva mollari uchun profilaktika va davolashning yangi usullarini yaratish	Chorvachilik mahsulotlari sifatini oshirish va hududning ekologik holatini yaxshilash

4-jadvalda qishloq xo‘jaligi korxonalarining barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga baho berilgan. Unda agrar korxonalaridagi asosiy innovatsion yo‘nalishlar hamda sohada innovatsiyalarni joriy qilishga salbiy ta’sir qiluvchi omillar, shu bilan birga innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda qo‘llab-quvvatlashni ta’minlovchi omillar tahlil etilgan.

<sup>17</sup> Muallif ishlanmasi.

**Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatining barqarorligiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili<sup>18</sup>**

Omillar	Omillar ta’siri natijalari
Bilim va ko‘nikma	Ishlab chiqarish korxonalarida aynan boshqaruv (bozor iqtisodiyoti qonunlari) bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni yetishmasligi innovatsion boshqaruvni joriy etishga to‘sqinlik qiladi.
Markazlashish darajasi	Markazlashuv darajasi yuqoriligi quyi pog‘ona boshqaruvchilarining ijodiy fikrlash va boshqaruvda ijodiy yondashish imkoniyatini cheklaydi
Kommunikatsiya tizimi	Kommunikatsiya tizimi yaxshi tashkil qilinmaganligi yoki boshqaruvchi ulardan samarali foydalana olmasligi axborot va yangiliklarni ayrim hollarda o‘z vaqtida yetkazish muammosini keltirib chiqarmoqda
Shartnoma munosabatlari	Boshqaruvchi va xodim belgilangan vazifalarni aniq bilmasligi va ularga amal qilinmasligi boshqaruv jarayonini rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda
Innovatsiyalarga bo‘lgan qiziqish	Boshqaruvchilarda innovatsiyalarga bo‘lgan qiziqishning pastligi, ya’ni boshqaruvdagi egiluvchanlik qobiliyatining kamligi
Rag‘batlantirish	Boshqaruvda rag‘batlantirish tizimi mukammal ishlab chiqilmaganligi innovatsion boshqaruvni joriy qilishga qiziqishni pasaytiradi

Omillarning ko‘pligi, ular muayyan belgilar bo‘yicha tasniflanishini amalga oshirishga imkon beradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining tashqi omillariga quyidagilar kiradi: iqtisodiyot sohasida davlatning inqirozga qarshi qaratilgan siyosati; mamlakatdagi demografik vaziyat; siyosiy barqarorlik; fan va texnika taraqqiyoti; transport infratuzilmasining rivojlanganligi.

“Ichki omillar qishloq xo‘jaligi korxonalarining ichki muhitida, uning kichik tizimlarida (xodimlar, ishlab chiqarish, marketing, sotish, moliya, tashkiliy tuzilma) shakllanadi. Ichki omillarni boshqarish korxonaga barqarorlikni mustahkamlash zaxira(rezerv)larini aniqlash va tashqi omillar o‘zgargan taqdirda, ishlab chiqarishni tezkor ravishda boshqarish imkonini beradi”.<sup>19</sup>

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘zgarishi bir nechta omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zgarishini qishloq xo‘jaligiga ta’sirini miqdoriy jihatdan aniqlash qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlanish istiqbollari belgilash mumkin. Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlanish yo‘nalishini aniqlashda ishlab chiqarish modelidan foydalangan. Bunda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarini o‘zgarishini baholashda quyidagi omillardan foydalanildi:

K – qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m;

L – qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida band bo‘lganlar soni, ming kishi;

<sup>18</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>19</sup> M.Q.Pardayev va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. Darslik. – Toshkent. - 2011.-136 b.

S – qishloq xo‘jaligi ekin maydoni, ming ga.

Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish modelidan foydalanilganligi uchun o‘zgaruvchilarni dastlab logarifmlab keyin, modeldagi mustaqil o‘zgaruvchilarni qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlariga ta’siri EViews 9 dasturidan foydalangan holda aniqlandi.

Jarayonlarining ko‘p omilli empirik modellariga ega bo‘lish uchun EViews 9 dasturida bir necha variantlar hisob-kitob qilindi va tegishli natijalar olindi. 5-jadvalda respublikada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning rivojlanishini ifodalovchi empirik model qurilgan va bu modelni hamda uning parametrlarini baholashda mezonlardan foydalanib, ahamiyatligi ko‘rsatilgan (5-jadval).

### 5-jadval

#### Respublikada qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirishning rivojlanishini ifodalovchi ekonometrik modelning natijalari<sup>20</sup>

O‘zgaruvchi	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	Ehtimolligi
C-konstanta	-521028,8	227297,8	-2,292274	0,0426
K - qishloq xo‘jaligiga investitsiya	12,59025	1,766252	7,128228	0,0000
L - qishloq xo‘jaligida bandlar	95,04654	24,20906	3,926074	0,0024
S - qishloq xo‘jaligi ekin maydoni	115,3278	63,01253	1,830236	0,0944
R <sup>2</sup> - Determinatsiya koeffitsiyenti	0,956967	Bog‘liq o‘zgaruvchining o‘rtacha qiymati		351638,7
Tekislangan R <sup>2</sup> -Determinatsiya koeffitsiyenti	0,945230	Bog‘liq o‘zgaruvchining standart chetlanishi		60616,68
Regressiyaning standart xatosi	14186,09	Akaykening axborot modeli		22,18109
Qoldiqlar kvadratlari yig‘indisi	2,21E+09	Shvarsning axborot modeli		22,36990
Maksimal o‘xshashlik funksiyasining qiymati	-162,3582	Hannan-Quinn criter		22,17908
F - Fisher mezoni	81,53843	DW-Darbin-Watson mezoni		1,405508
Prob (F - Fisher mezoni)	0,000000			

Qishloq xo‘jaligida yaratiladigan mahsulot va xizmatlar hajmi o‘shishi uchun regression modelni qurish hisoblangan DW mezonining qiymati jadval qiymatidan yuqori ekanligi aniqlandi. Agar natijaviy omilning qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud bo‘lmasa, u holda hisoblangan DW mezonining qiymati 2 atrofida bo‘ladi. Mazkur misolda hisoblangan DW mezonining qiymati 1,4055 ga teng. Bu esa natijaviy omil qoldiqlaridan avtokorrelyatsiya mavjud emasligini ko‘rsatadi. Fisher

<sup>20</sup> Muallif tomonidan EViews 9 dasturi hisob-kitoblaridan olingan natijalar asosida tuzilgan.

va Styudent mezonlari hisoblanib, hisoblangan qiymat jadval qiymatlari bilan taqqoslangan, jadval qiymatlaridan kattaligi aniqlangan.

5-jadvalda keltirilgan modelni quyidagi funksional shaklda ifodalash mumkin:

$$Q = -521028,8 + 12,59025 \cdot K + 95,04654 \cdot L + 115,3278 \cdot S$$

$$(2,2923) \quad (7,1282) \quad (3,9261) \quad (1,8302) \quad (14)$$

Odatda, determinatsiya koeffitsiyenti [0;1] kesmada qiymatlarni qabul qiladi. Koeffitsiyent qiymati 1 ga qanchalik yaqin bo'lsa, bog'liqlik shunchalik kuchli hisoblanadi. Mazkur holatda determinatsiya koeffitsiyentining **0,999** qiymatga teng bo'lishi, modelda mazkur iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida yetarli darajada kuchli bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Modellarni turli miqdordagi omillar bilan taqqoslash imkoniyati bo'lishi va ushbu miqdordagi omillar  $R^2$  statistikaga ta'sir etmasligi uchun, odatda, korrektlashgan determinatsiya koeffitsiyentidan foydalaniladi<sup>21</sup>, ya'ni:

$$R_{tekis}^2 = 1 - \frac{s^2}{s_y^2} \quad (15)$$

Mazkur holatda ushbu tekislangan determinatsiya koeffitsiyenti **0,999** qiymatiga teng bo'lishi va uning  $R^2$  ga yaqinligi, modelning ta'sir etuvchi omillar soni o'zgarishi atrofda qiymatlar qabul qilinishini bildiradi.

Tuzilgan ko'p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatliligi va o'rganilayotgan jarayonga mos kelishini aniqlash uchun Fisherning F-mezonidan foydalanamiz. F-mezonning haqiqiy qiymati quyidagi formula yordamida hisoblanadi<sup>22</sup>:

$$F_{hisobi} = \frac{R^2}{1-R^2} \cdot \frac{n-m-1}{m}, \quad (16)$$

Bu yerda:  $R^2$  – determinatsiya koeffitsiyenti;

$n$  – kuzatuvlar soni;

$m$  – omillar soni.

F – mezonning haqiqiy qiymati  $F_{hisob}=81,5384$  ga teng. Agar haqiqiy qiymat jadvaldagi qiymatdan katta bo'lsa, u holda tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli yoki o'rganilayotgan jarayonga adekvat deyiladi.

F – mezonning jadval qiymatini topamiz. Buning uchun ozodlik darajalari  $k_1 = m$  va  $k_2 = n - m - 1$  hamda  $\alpha$  ahamiyatlilik darajasi bo'yicha qiymatlarni hisoblaymiz. Ahamiyatlilik darajasi  $\alpha = 0,05$  va ozodlik darajalar  $k_1=3$  va  $k_2=15-4-1=10$  dan kelib chiqib, F-mezonning jadval qiymati  $F_{jadval}=3,71$  ga teng.

$F_{hisob} >> F_{jadval}$  shartni qanoatlantiradi, bu esa, F-mezonning hisoblangan qiymati jadvaldagi qiymatidan katta ekanligidan statistik ahamiyatli bo'lib, undan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlar hajmini kelgusi davrlarga prognoz qilishda foydalanish mumkin.

Qurilgan modellarda (chiziqli regressiya tenglamalari uchun) hisobga olingan

<sup>21</sup> Dimitrios Asteriou and Stephen G. Hall. Applied econometrics. A modern approach using Eviews and Microfit. Revised edition. Palgrave Macmillan, New York, 2007. – p.397.

<sup>22</sup> Эконометрика: Учебник. /Подред. И.И.Елисейевой. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 51-53 с.

parametrlar turli ko‘rsatkichlardan iborat. Shuning uchun tahlil qilishda elastiklik koeffitsiyentlarini hisoblab chiqish lozim.

